



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti




№4(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 242 sahifa,  
2-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbiarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili .....	16
<b>Salim Doniyorov</b>	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish .....	21
<b>Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna</b>	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
<b>Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich</b>	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Yunusov Dilshod Raxmatovich</b>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
<b>Aliqulova Habiba Bahranovna</b>	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri .....	36
<b>Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi</b>	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli .....	41
<b>Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna</b>	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
<b>Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна</b>	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
<b>Tashibekova Munajat Xoshimovna</b>	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
<b>Asqarova Ma'mura Sadriddinovna</b>	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati .....	59
<b>Atajanova Xurjon Pirnazar qizi</b>	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend .....	64
<b>Murtozayeva Nigora Murtoza qizi</b>	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
<b>Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna</b>	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari .....	69
<b>N. A. Musayeva</b>	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari .....	76
<b>Odiljonova Kamola Abduvosit qizi</b>	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching .....	81
<b>Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari .....	84
<b>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</b>	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati .....	87
<b>Raxmanova Dilnoza Farmanovna</b>	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari .....	90
<b>Shamshaddinova Saodat Saparbayevna</b>	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti .....	93
<b>Shamuratov Asqar Abdullayevich</b>	





The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinov To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi .....	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения .....	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	
Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari.....	127
<i>Adizova G. M.</i>	
Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash .....	131
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna</i>	
STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi .....	134
<i>So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	138
<i>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli.....	142
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari.....	146
<i>Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi</i>	
Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari.....	150
<i>Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida.....	153
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari .....	158
<i>Radjapova Xuzra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili.....	161
<i>Xaydarov Xurshid Ismatovich</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	166
<i>Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi</i>	
Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari .....	170
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari.....	173
<i>Abduraxmanov M. B.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash.....	178
<i>Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna</i>	
Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish.....	181
<i>Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi</i>	
Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research.....	183
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli.....	188
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich tayyorlov guruhida ulotqirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi.....	191
<a href="#">Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati.....	197
<a href="#">Inoyatova Zulfiya Xamdamovna</a>	
Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari.....	199
<a href="#">Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi</a>	
Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish .....	203
<a href="#">Kayumov Oybek Achilovich</a>	
Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish.....	209
<a href="#">Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.....	211
<a href="#">Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna</a>	
Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish .....	214
<a href="#">Rayimova Shahlo Sobirjon qizi</a>	
STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari .....	217
<a href="#">Toshev Elbek Choriyevich</a>	
Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli.....	223
<a href="#">Usmanov Botir Allaberdievich</a>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati.....	227
<a href="#">Xalilova Dilnoza Furkatovna</a>	
Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni .....	230
<a href="#">Xodiyeva Dilrabo Pirimovna</a>	
Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education .....	233
<a href="#">Yunusova Nodira Akhmadjanovna</a>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari .....	237
<a href="#">Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</a>	



## RIVOJLANISHIDA NUQSONI BOR BOLALARNI TA'LIM- TARBIYALASHNING ILMIY- PEDAGOGIK ASOSLARI

Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

“Kreativ pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchi-stajyor

ORCID: 0009-0000-1742-7607

**Annotatsiya:** Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari, ularni ta'lim jarayoniga samarali jalb etishning zamonaviy yondashuvlari hamda inklyuziv ta'lim sharoitida qo'llaniladigan metod va texnologiyalar ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** rivojlanish nuqsoni, inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika, individual yondashuv, psixologik-pedagogik yordam.

**Abstract:** The psychological and pedagogical characteristics of children with developmental disabilities, modern approaches to their effective inclusion in the educational process, as well as methods and technologies applied in inclusive education are scientifically analyzed. In addition, the theoretical foundations and practical mechanisms for supporting children with special educational needs are highlighted.

**Key words:** developmental disabilities, inclusive education, special pedagogy, individual approach, psychological and pedagogical support.

**Аннотация:** Психолого-педагогические особенности детей с нарушениями развития, современные подходы к их эффективному включению в образовательный процесс, а также методы и технологии, применяемые в условиях инклюзивного образования, подвергнуты научному анализу. Кроме того, раскрываются теоретические основы и практические механизмы поддержки детей с особыми образовательными потребностями.

**Ключевые слова:** нарушения развития, инклюзивное образование, специальная педагогика, индивидуальный подход, психолого-педагогическая поддержка.

### KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim tizimida insonparvarlik va teng imkoniyatlar tamoyillariga asoslangan yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning sifatli ta'lim olishini ta'minlash dolzarb pedagogik muammolardan biridir.

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar – bu jismoniy, aqliy, nutqiy yoki hissiy rivojlanishida muayyan cheklanishlarga ega bo'lgan bolalar bo'lib, ular maxsus pedagogik yondashuvni talab etadi. Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalardan biridir <sup>[1]</sup>.

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar deganda, jismoniy, aqliy, nutqiy yoki psixologik rivojlanishida ma'lum cheklanishlarga ega bo'lgan bolalar tushuniladi. Ular o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarga ega bo'lib, maxsus yondashuvni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday bolalarda diqqatning beqarorligi, xotira va tafakkur jarayonlarining sust rivojlanishi, nutqdagi kamchiliklar hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu sababli, ularni o'qitishda individual va differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rivojlanish nuqsonlarining turlari va xususiyatlari rivojlanish nuqsonlari quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

- intellektual rivojlanishdagi nuqsonlar;
- nutq buzilishlari;



- eshitish va ko'rish nuqsonlari;
- tayanch-harakat tizimi buzilishlari;
- autizm spektr buzilishlari;
- diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi.

Har bir tur o'ziga xos psixologik va pedagogik xususiyatlarga ega bo'lib, ta'lim jarayonida differensial yondashuvni talab etadi. Psixologik-pedagogik yondashuvlar rivojlanishida nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda quyidagi yondashuvlar muhim hisoblanadi:

- individual yondashuv – har bir bolaning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish;
- differensial ta'lim – ta'lim mazmuni va metodlarini moslashtirish;
- kompensator yondashuv – yetishmayotgan funksiyalarni rivojlantirish;
- reabilitatsion yondashuv – bolani ijtimoiy hayotga moslashtirish.

Inklyuziv ta'limning ahamiyati inklyuziv ta'lim – barcha bolalar, shu jumladan rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan tizimdir. Uning asosiy afzalliklari:

- ijtimoiy moslashuvni ta'minlaydi; diskriminatsiyani kamaytiradi;
- bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi;
- jamiyatda bag'rikenglikni shakllantiradi.

Shuningdek, inklyuziv ta'limning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tish zarur. Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan tizim bo'lib, u rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning jamiyatga moslashuvini ta'minlaydi. Inklyuziv muhitda ta'lim olayotgan bolalarda ijtimoiy faollik, o'ziga bo'lgan ishonch va kommunikativ ko'nikmalar yuqori darajada rivojlanadi <sup>[2]</sup>.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar quyidagi metod va texnologiyalar samarali hisoblanadi:

- individual ta'lim dasturlari (ITD);
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- o'yin asosidagi ta'lim;
- korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar;
- multisensor yondashuv.

Bu metodlar bolalarning qiziqishini oshirib, ularning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

O'qituvchi va mutaxassislar roli rivojlanishida nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda quyidagi mutaxassislar hamkorligi muhim:

- o'qituvchi;
- logoped;
- psixolog;
- defektolog;
- ota-onalar.

Ularning o'zaro hamkorligi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, quyidagi yondashuvlar samarali ekanligi aniqlandi:

- *birinchidan*, individual ta'lim dasturlaridan foydalanish – har bir bolaning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi;
- *ikkinchidan*, korreksion-rivojlantiruvchi metodlar – logopedik mashg'ulotlar, psixologik treninglar va o'yin texnologiyalari orqali bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi;
- *uchinchidan*, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar – bu o'z rivojlanish jarayonida ma'lum qiyinchiliklarga duch keladigan, maxsus pedagogik yordamga muhtoj bo'lgan bolalardir. Ularning rivojlanishidagi nuqsonlar turlicha bo'lishi mumkin: ayrim bolalarda intellektual rivojlanish sust bo'lsa, boshqalarida nutq buzilishlari, eshitish yoki ko'rish qobiliyatida muammolar, tayanch-harakat tizimi buzilishlari yoki autizm spektr buzilishlari kuzatiladi. Har bir bola o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgani sababli, ular bilan ishlashda yagona standart yondashuv yetarli bo'lmaydi, balki individual va differensial yondashuv zarur bo'ladi.

Ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etish bir qator muhim tamoyillarga asoslanadi. Avvalo, insonparvarlik tamoyili asosida har bir bolaning shaxs sifatida qadri e'tirof etiladi va unga hurmat bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Shu bilan birga, teng imkoniyat tamoyili barcha bolalar uchun bir xil ta'lim olish sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Individual yondashuv tamoyili esa har bir bolaning qobiliyati, ehtiyoji va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni talab qiladi [3].

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarda psixologik jarayonlarning o'ziga xos rivojlanishi kuzatiladi. Jumladan, diqqatning tez chalg'ishi, xotira hajmining cheklanganligi, tafakkur jarayonining sekinligi va nutq rivojlanishining orqada qolishi kabi xususiyatlar ta'lim jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ijtimoiy moslashuv jarayonida ham muammolar kuzatiladi, ya'ni bunday bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiynalishi mumkin. Shu sababli, ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali jalb etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Xususan, individual ta'lim dasturlari har bir bolaning rivojlanish darajasiga mos ravishda tuziladi va uning imkoniyatlarini maksimal darajada ochib berishga xizmat qiladi. Korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar esa mavjud nuqsonlarni bartaraf etish yoki yumshatishga qaratilgan bo'lib, ular logopedik mashqlar, psixologik treninglar va motorik rivojlantirish mashqlarini o'z ichiga oladi [4].

Shuningdek, o'yin texnologiyalaridan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. O'yin bolalar uchun tabiiy faoliyat turi bo'lib, u orqali o'qitish jarayoni qiziqarli va samarali tashkil etiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham ta'lim jarayonini boyitadi, interaktiv vositalar orqali bolalarning faolligini oshiradi va bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi.

Inklyuziv ta'lim tizimi rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni qo'llab-quvvatlashning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarni birgalikda o'qitishni nazarda tutadi va ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlaydi. Bunday muhitda bolalar bir-birini tushunishga, hurmat qilishga va hamkorlikda faoliyat olib borishga o'rganadi. Natijada, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch ortadi, ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi va ular jamiyatga moslashadi [5].

Biroq, ushbu yo'nalishda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, pedagoglarning maxsus tayyorligi yetarli emasligi, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi cheklanganligi, ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi hamda jamiyatda mavjud stereotiplar bu jarayonning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglarni qayta tayyorlash, inklyuziv ta'lim bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish, maxsus resurs markazlarini yaratish va jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish zarur.

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etish kompleks yondashuvni talab qiladigan murakkab, ammo muhim pedagogik jarayondir. Bu jarayonda individual yondashuv, inklyuziv muhit yaratish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda mutaxassislar va ota-onalar hamkorligini ta'minlash asosiy omillar hisoblanadi. Ushbu shartlar bajarilganda, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ta'lim olish samaradorligi oshadi va ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga imkon yaratiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali jalb etish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bunda individual yondashuv, inklyuziv muhit yaratish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosiy omillar hisoblanadi.

Shuningdek, mutaxassislar hamkorligi va ota-onalarning faol ishtiroki bolalarning ijtimoiylashuvi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali jalb etish uchun individual yondashuv, inklyuziv ta'lim muhitini yaratish va mutaxassislar hamkorligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tojiboyeva O. A. (2024). Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning diqqatini tekshirish metodikasi. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(59), 347–350.
2. Tojiboyeva O. A. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat xususiyatlari. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(59), 180–182.
3. Tojibaeva, A. A. K., & Kholmamatova, Z. K. K. (2026). Autism Spectrum Disorder – Modern Concepts And Approaches. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 2(2), 25–27.
4. Tojibaeva, A. A. K., & Hasanboyeva, K. M. K. (2026). The environment for speech development in the family and its importance. Science and Education, 7(3), 696–699.
5. Tojibaeva, A. A. K., & Abdumamatova, Z. A. Q. (2026, February). Attention Deficit In Children And Technologies For Eliminating Addiction And Hyperactivity Syndrome. In Claritas Conference Platform (No. 2, pp. 34–36).
6. Kayumov, B. Z. O., & Nurmanova, B. B. Q. (2026). Factors and causes of behavioral deviation in adolescents. Science and Education, 7(3), 534–537.
7. Kayumov, B. Z. O., & Boyturayeva, N. M. K. (2026). Online psychological consultation service: problems and solutions. Science and Education, 7(3), 527–533.
8. Kayumov, B. Z. O., & Kodirova, Z. S. Q. (2026). The influence of the virtual world on the formation of destructive behavior in adolescents. Science and Education, 7(3), 426–429.
9. Kayumov, B. Z., & Olimjonova, N. S. (2026). The importance of role playing in preschool children. Science and Education, 7(3), 475–480.
10. Qayumov, B. Z. O., & Rustamova, D. J. (2026). Causes of deviation in the education of school-age students. Academic Journal of Science, Technology and Education, 2(3), 101–103.
11. Kayumov, B. Z. O. (2026). Professional Development And Success Of Teaching Staff In Higher Education. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 2(2), 52–55.
12. Baxtiyor, Q. (2024). The Correlation Relationship Of The Development Of Creativity In Adolescents With Achievement Motivation. In Next Scientists Conferences (Vol. 1, No. 01, pp. 24–27).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.